



MUSIQA TARBIYASINING SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ROLI

Qodirboyeva Shohida Yalgʻashbay qizi

Amudaryo tumani 21 – sonli Bolalar musiqa va sanʼat maktabi „Torli, damli va fortepiano” boʻlimi oʻqituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarning sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqiy tarbiyalarini mustahkamlash haqida maʼlumotlar keltirilgan. Shuningdek, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy bilimlarni beruvchi musiqa toʻgaraklari va Bolalar musiqa va sanʼat maktablari va bundan tashqari ularning oʻqish jarayonlari haqida qarashlar keltirib oʻtilgan. Hamda yana Oʻzbekiston maktablarida sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiyalanish muassasalarini yaratishning dolzarbligi bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: Toʻgarak, qobiliyat, musiqiy tushunchalar, oʻquv rejalar, musiqiy faoliyat, maktabdan tashqari musiqiy taʼlim turlari, madaniy meʼroslar, tarix, tanlovlar.

Bilamizki, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi maktab oʻquvchi yoshlarini imkoni boricha yanada koʻplagan ommaviy va toʻgarak ishlariga jalb qilish, ularning musiqiy dunyo qarashlarini yanada rivojlantirish, musiqiy didlarini shakllantirish va tabiat bundan tashari ona Vatanga nisbatan mehr-muhabbatini rivojlantirishdir. Ushbu rejalarini amallarda sinashda umumiy oʻrta maktablarida musiqa darslardan tashqari ommaviy hamda bundan tashqari toʻgarak ishlari olib kelinmoqda. Sinfdan tashqari musiqa madaniyati toʻgaraklarining ikki shakli boʻlib ular quyidagilardan iboratdir:

1. Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli
2. Musiqa tarbiyasining toʻgarak shakli

Maktablarda musiqiy toʻgaraklar estetik tarbiyalanishning bir boʻlagi boʻlib u koʻp jihatlaridan maktab oʻquvchi yoshlarining maʼnaviy rivojlanib borishiga yoʻnaltirilgan boʻlib hisoblanadi. Sinfdan tashqari boʻlib hisoblangan musiqa toʻgaraklari oʻziga xos faoliyat turi bilan yaʼni: musiqiy asarlarni tinglash va bundan tashqari ushbu asarlarni tahlil qilishlar bilan ham qiziqarliroq boʻlib oʻtadi. Musiqani tinglar jarayonlarida toʻgarak ishtirokchilari musiqaga xos boʻlgan nazariy bilim va koʻnikmalarga ega boʻlib boradilar hamda bundan tashqari tinglanayotgan musiqalarni bir vaqtning oʻzida tahlil qilishning sir sinoatlarini oʻzlashtirib rivojlantirib borishadi.

Musiqa toʻgaraklari oʻqituvchisining ommaviy ishlari maktab maʼmuriyatlari tomonidan tasdiqlangan tarzda qoʻllanib boriladi. Ommaviy ishlar rejasi esa musiqa fani va musiqa toʻgaraklari oʻqituvchisi va maktabning maʼnaviy – marifiy ishlari mudiri, maktab yetakchilari jamlanmasida hamkorlik asosida oʻquvchilarning yoshlariga, qiziqish darajalariga, bayram va konsertlar va bundan tashqari har xil uchrashuvlarni va har xil koʻrik tanlovlarni ham hisobga olgan holda tuziladi. Bularga



„O‘zbekiston Vatanim manim“, „Kelajak ovozi“ va ko‘plagan ko‘rik tanlovlar shular jumlasidandir. Musiqiy to‘garak ishlarining shahsiy ish rejasini esa to‘garak o‘qituvchisining o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib mustaqil tarzda tuzadi. Haftada o‘rtacha ikki yoki uch marotaba musiqiy to‘garakni guruhlariga bo‘lib olib darslar o‘tiladi. To‘garak ishlari asosi musiqa darsi hamda musiqiy bilimlarni, ko‘nikmalarni chuqurroq o‘rganib borishdir. Musiqiy to‘garak ishlarida qobiliyatli va qiziquvchan, musiqa darslarida faol ishtirok etuvchi o‘quvchilar tanlab ro‘yhatga olinadi. Va shu tariqa to‘garak guruhlari tuzilib boriladi. Dars mobaynida barcha o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan qiziqishlari hamda harakatlari hisobga olinib har xil turdagi musiqa to‘garaklariga yo‘naltirilib boriladi. Musiqiy to‘garaklarning ish faoliyatini aktivlashtiruvchi narsa bu maktab sahnasi hisoblanadi.

Musiqada sinfdan hamda maktablardan tashqari ta‘lim va tarbiyalari bevosita musiqa darslaridagi o‘qitish usullari va metodlariga tayanadi. Umumiy ma‘nodagi maqsad hamda vazifalar asosida maktabdagi musiqa va san‘atga qiziqishi bor o‘quvchilarning musiqaga ehtiyojlarini rivojlantirib boradi.

Ma‘lumki, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘quvchilarini professional musiqa va san‘at faoliyatiga olib kirishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ya olmaydi. Lekin, musiqa va san‘atni tushunib idrok qilish va unda emodsialar olish har bir o‘quvchiga, u kelajakda musiqa sohasida faoliyat olib boradimi yo‘qmi bundan qat‘iy nazar bu borada yetarlicha bilim va ko‘nikmalari mavjud bo‘lmog‘i kerak.

Sinfdan tashqari musiqiy ko‘nikmalar o‘quvchilarning umumiy ma‘nodagi rivojlanish va uning kelajakdagi mashg‘ulotlari hamda bundan tashqari kasbi to‘g‘risidagi dastlabgi tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lib borgan ehtiyoj hamda bundan tashqari qiziqishlarning kengayib borishi, musiqiy estetik va emotsional rivojlanishi mustaqil hamda sinfdan tashqari musiqiy tarbiya bilan bog‘liq.

Maktabdan tashqari ta‘limning barcha yo‘nalishlari hamda barcha to‘garaklardagi o‘quvchi yoshlarning ma‘naviy-marifiy fazilati bo‘lib hisoblanadi. Boy madaniy me‘rosimiz va tarixiy an‘analarimizga hamda bundan tashqari insoniylik qadriyatlarimizga hurmat va istiqloliy fikr va g‘oyalarga sadoqatlik ruhida tarbiyalanishi bilan belgilanib boriladi.

Sinfdan tashqari bo‘lgan musiqiy to‘garaklarda bolalar musiqani tushunib va unga bo‘lgan tushunchalarini faol tarzda rivojlantirib, san‘at hamda atrof hayotdagi go‘zal bo‘lgan hodisalarga muhabbat tushunchalarini hamda o‘zlarining his-tuyg‘ularini musiqiy tilda, ijodiy turda namoyon qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish katta ro‘l o‘ynaydi. Bolalar qobiliyati aktiv musiqa faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyatlar deganda insonning kerakli ko‘nikma, malaka, ilmlarini



olishi va uni amaliyotda muvoffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi. Ma'lum bir faoliyat turiga bo'lgan qobiliyat nerv sistemasining analizatorlari sezgirliigi, kuchli nerv jarayonlarining harakatlanganligi, muvozanatlashtirilganligi kabi omillar asosida rivojlanadi. Masalan: bir sinfdan o'qiyotgan ikkita o'quvchiga bir xil etyudni vazifa qilib beradi. Lekin biri oldinroq biri esa keyinroq yod olishadi. Muvaffaqiyatga erishishdagi bu farqni xohlagan bir pedagog ana shunday holatlarda o'quvchilardagi qobiliyatlar darajasiga bog'laydi.

Tug'ma qobiliyatlarning irsiy berilishi, masalan: tibbiyot ilimida va unga muvofiq pedagogikada ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bizning ta'lim-tarbiya tizimimiz hamma o'quvchilar bir xil imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun ham bolalarning kamol topishi uchun maktablarda musiqa madaniyat darslaridan tashqari iqtidorli bolalarni o'qitish uchun maxsuslashtirilgan hamda ixtisoslashtirilgan va umumlashtirilgan maktablari tashkil qilingan bo'lib, bu maktablarga bolalar maxsus komissiyaning imtixonidan 5 baholi sistemalar orqali o'qishga qo'shimcha sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim sinfatida qabul qilinadi.

Bu ta'lim muassasalarining birgina musiqa va san'at maktablarining o'qitish faoliyatini misol qilib oladigan bo'lsak: o'qishning birinchi sinfiga qabul qilingan o'quvchilar o'z yo'nalishlari orqali 5-7 yilgacha o'qib bilim olishlari mumkin. 5 yillik o'quv yo'nalishlariga milliy cholg'u asboblari va xonadalari va bundan tashqari rassomchilik, kashtachilik, amaliy san'at va hunarmndchilik yo'nalishlari kiradi. 7 yillik o'quv yo'nlislariga esa skripka, fortepiano va shu qatordagi juda ko'plab jaxon musiqa asboblari kiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabdagi musiqa madaniyati darslaridan farqli o'laroq bu musiqa va san'at maktablarida har bir yo'nalishlarda chuqurlashtirilgan tarzda o'zbek va bundan tashqari butun jaxon musiqa va san'atning sir-sinoatlari iqtidorli bolajonlarga o'rgatilib boriladi. Umumiy o'rta ta'lim, maktablaridan yana bir farqi ixtisoslashtirilgan bu musiqa va san'at maktabida darslar individuallashtirilgan xolda har bir o'quvchiga alohida bir butun dars ajratiladi. Bundan tashqari qo'shimcha darslarda o'quvchilar guruh bo'lib dars olib borishlari mumkin. Bu darslar qatorlariga esa xor, solfedjio, xorijiy musiqa adabiyoti, o'zbek musiqa adabiyoti, musiqa savoti, ansabllar va kvartet hamda kvintetlar kiradi. Har bir o'quvchi bu ixtisoslashtirilgan maktablarda ixtiyoiy turda oqib davlat to'lovlari asosida chuqurlashtirilgan bilimlarga ega bo'lishadi. Bundan tashqari bu ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablarida bir oiladan ikkita farzand taxsil olishayotgan bo'lsa bularga davlat to'lov summasiga yengillik beriladi va maktab vzno's mablag'idan kamaytirish qilinadi.



Har bir cholg'u asbob uchun 1-sinfдан to bitirguncha ish rejalari davlat ta'lim standartlar asosida belgilanib beriladi. Bu ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablarida o'qiyotgan iqtidorlar orasidan iqtidorlilari tanlab olinib davlat tanlovlariga yuboriladi. Va bu kabi tanlovlarda butun jaxon bo'ylab O'zbekistonlik san'atkorlar faxrli ishtirok etib, o'rinlar olib kelishmoqda. Shu bilan bir qatorda butun dunyoga davlatimiz nomini tanitib, milliy musiqalar va o'z iqtidorlarini namoyon qilishmoqda.

Bu ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablaridan tashqari yana "barkamol avlod bolalar tashkilotlari", "madaniyat markaz"lari ham iqtidorli va qiziquvchan bolalarga ta'lim berib kelishmoqda. Bu musiqa va san'at maktablarida, madaniyat markazlarida va barkamol avlod bolalar tashkilotlarida taxsil olayotgan bolalar va xodimlar, o'qituvchilr ishtiroklarida har –xil bir-biridan chiroyli bayram konsertlari ham tashkil qilinib xalqimizga o'z qobiliyatlarini ko'rsatib kelishmoqda. Bu katta ishlarni amalga oshirishda va konsert darsturlari na'munali darajada o'tishida har bir iste'dodli bolalar va har bir o'qituvchilarining hissasi va roli alohida bilinib turadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. G.M. SHaripova, G. T. Tojiyev „Musiqqa metodikasi” Toshkent 2012-y.
2. Anorov T.N. „Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa to'garaklarini tashkiletish metodikasi” maqola. Экономика и социум No10(89) - 2021
3. G'ofurova Shahrizoda Farhod qizi „Sinfдан tashqari musiqa to'garaklarini tashkil qilish” maqola. Actual problems of scinience and education in the face of modern challenges – 2023
4. Tohirjon Ortiqov „Musiqqa o'qitish metodikasi” Toshkent 2010-y.
5. Intereureconf.com
6. КиберЛенинка.ru